

XORIJIY OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MAGISTRATURA TA'LIMI

Qo'chqorov Astonaqul Musurmonqulovich

Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti kafedra mudiri

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada xorijiy oliy ta'lim muassasalarining magistraturalari faoliyatini o'rganish va tahlil qilish natijalari yoritilgan.

***Kalit so'zlar:** Oliy ta'lim muassasalari, magistratura, xorijiy oliy ta'lim, faoliyati, takomillashtirish, samaradorligi, solishtirish, o'rganish, natijalar, muammolar, istiqbol va x.k.*

ANNOTATION

In this qualification-graduation work, in order to improve the magistracy activities of Higher Education Institutions on a modern basis, the magistracies of foreign HEIs were compared and studied historically.

***Key words:** Higher training institutions, master's, foreign higher education, activity, improvement, efficiency, to compare, learning, problems, prospect.*

Kirish. Hurmatli Prezidentimiz Sh. Mirziyoev 22.12.2022 yil kuni O'zbekiston halqi va Oliy Majlisga 2023 yil uchun yo'llagan Murojaatnomalarida yurtimizda ta'lim sohasini rivojlantirishga e'tibor hech qachon to'xtab qolmasligini aytib **“Ta'lim sifatini oshirish-yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu-yagona to'g'ri yo'lidir”**deb ta'kidladilar.

“O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish va ilg'g'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda rivojlantirish hamda jahon oliy ta'limi standartlari darajasiga olib chiqish yuzasidan aniq chora-tadbirlar belgilab berilgan.

Yuqorida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda rivojlangan xorijiy mamlakatlar oliy ta'limi magistraturalari faoliyatini o'rganish va tahlil qilish asosiy maqsad qilib qo'yildi.

Kuzatishlarning ob'ekti sifatida rivojlangan 4 ta xorijiy mamlakatlarning oliy ta'lim magistraturalari bo'lib hisoblandi.

Tadqiqotning predmeti: Jahon oliy ta'limi magistraturalari tajribasini, xususan Yevropa mamlakatlaridan - Angliya, Ispaniya, Fransiya, Osiyodan esa Janubiy Korea kabi tanlab olingan davlatlarning oliy ta'lim tizimidagi magistratura faoliyatini o'rganish va tahlil qilish.

Olingan ma'lumotlarning amaliy ahamiyati. Xorijiy oliy ta'lim magistraturalari faoliyatini o'rganishlar natijasida olingan ma'lumotlarni mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalari magistraturalarini zamonaviy asosda takomillashtirish maqsadida tadbiq etish imkoniyatlari mavjudligi amaliy ahamiyatini belgilab beradi.

O'rganishlarning uslubi. Bunda asosan xorijda faoliyat ko'rsatayotgan bir qator olimlar, tadqiqotchilar va magistrantlarning ma'lumotlaridan keng foydalanildi. Xorijiy oliy ta'lim magistraturalari faoliyatini o'rganish va tahlil qilishda asosan qiyoslash hamda solishtirish usullari qo'llanildi.

Natijalar. Kuzatishlar xorijiy oliy ta'lim magistraturalarida bir qator qulaylik va ustunliklar borligini ko'rsatdi. Bizga ma'lumki, xorijiy oliy ta'limda magistratura faoliyati o'ziga yarasha ko'p yillik an'ana va tajribaga boy. Masalan, Buyuk Britaniyada magistratura 1-yillik muddatdan iborat, O'zbekistonda esa 2-yilgacha davom etadi.

Magistratura (lotincha. magistratus — boshliq) — 1) Qadimiy Rimda davlat lavozimi; 2) ayrim davlatlarda sud mahkamalari tizimi; 3) ko'p davlatlarda oliy ta'lim bosqichi; 4) O'zbekistonda aniq mutaxassislik bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriat negizida ta'lim muddati kamida 2 yil davom etadigan oliy ta'limdir. Magistr atamasi lotincha bo'lib, "Magister" murabbiy, o'qituvchi, rahbar, rus tilidagi tarjimada esa "O'z ishining ustasi" degan ma'noni anglatadi. Magistrlik

dasturini tugallab, ilmiy yoki ilmiy- texnikaviy mazmundagi magistrlik dissertatsiyasini himoya qilgandan so'ng, bitiruvchilarga davlat malaka attestatsiyasi yakunlariga ko'ra magistr darajasi berilib, ularga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi, kasb-hunar va ilmiy faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beradigan diplom topshiriladi.

Ustozlarning ta'limdagi o'rni faqat g'arbga xos sifat emas, albatta. Sharq bu o'rinda bir necha yuz yillik tarixiy "Ustoz-shogird" an'anasi bilan maqtansa arziydi. G'arbning ilm- fandagi yutuqlari ham bevosita talaba va ilmiy rahbar tizimining to'g'ri yo'lga qo'yilganligi bilan bog'liq. Angliya universitetlariga dunyoning yuzlab mamlakatlaridan minglab talabalar aynan bir professorning shu universitetda dars o'tayotganligi, uning ilmiy ishlari muhimligi uchungina xujjat topshiradi.

Magistraturada o'qishni davom ettirmoqchi bo'lganlar ham ustozlari tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Buning uchun talabadan ham mas'uliyat, ham yordamga xayrixohlik kutiladi. Buyuk Britaniyadagi ilmiy rahbarlar ko'magini uch turga bo'lish mumkin:

1. Ilmiy ish (Dissertation). Magistrant (bunga bitiruvchi bakalavrlar ham kirishi mumkin) dissertatsiya yozishdan avval universitet tomonidan berilgan majburiy va o'zi tanlagan modullar (fanlar) ni o'zlashtirishi, kurs ishlarini bajarishi kerak.

Ijtimoiy fanlarda ko'p hollarda 2500-6000 so'zlik term-paper (kurs ishlari) talab qilinadi, bu boshqa sohalarda, ya'ni aniq fanlar, xattoki, ijtimoiy fanlar doirasida ham standartlashtirilgan testlar, amaliy mashg'ulot va keyslar ko'rinishida bo'lishi ham mumkin. Qidinlik darajasi barcha yo'nalishlarda o'ziga xosdir. Vazifani bajarish uchun ilmiy rahbar bilan uzluksiz ishlash, kerakli adabiyotlarni tanlash, xomaki rejani tuzish, uning qoralamasini ilmiy rahbarga yuborish, ilmiy rahbar bergan feedback (xato va kamchiliklar ustida ishlash uchun berilgan konstruktiv maslaxat)ni to'g'ri qabul qilish, ishni boshlang'ich nuqtasidan taxrir qilib chiqishni qamrab oladi.

Mazkur mashaqqatli jarayonda ilmiy raxbarning har bir ko'rsatmasiga amal qilish, topshiriqlarni o'z vaqtida bajarish u bilan yaxshi munosabatda bo'lish kafolatidir.

2. Ruxiy salomatlik (Mental health). Ko'pchilik hollarda ilmiy rahbarlar shogirdlaridagi (tutee) ruxiy tushkunlik va aqliy zo'riqishni tez ilg'ab olishadi yoki magistrantlar bu haqida xabar bersa, masalaga xolis yondashadi. Ba'zi oliygohlarda talabaning xayotiy muammolari bilan shug'ullanadigan universitet vakillari tayinlanadi (pastoral care providers).

Bu universitet mentalitetiga qarab o'zgarishi mumkin, albatta. Ba'zi oliygohlarda magistrantlar mustaqil ishlashga undaladi, ba'zilarida esa ilmiy rahbarlar bilan ta'limning boshidan oxirigacha, ba'zan bitirganidan so'ng ham ilmiy aloqani yo'qotmaydi.

Ular magistrantlarga dam olish kunlari ajratish, vazifani topshirish muddatini cho'zish va kerak bo'lsa, muammolariga birga yechim topishda ko'maklashadi.

Bu esa "Ustoz-shogird" munosabatlarining yanada mustaxkamlanishiga xizmat qiladi.

3. Kelajakdagi ilmiy imkoniyatlar (Career opportunities). Magistrantlar o'qishni tugatguniga qadar ilmiy rahbarlari ularning kelajakdagi rejalari bilan ham qiziqadi.

Chunki ilmiy rahbarlar salohiyati va tajribalaridan kelib chiqib holis baho beruvchi shaxslardir. Bundan tashqari, ilmiy rahbarlar bir necha yillik tajriba asosida ko'plab xamkasblar orttirgan bo'lib, bu shogirdlar uchun yaxshigina networking manbai bo'lib xizmat kilishi mumkin. Ilmiy rahbarlar go'yoki yo'l ko'rsatib boruvchi yo'l boshchi, uning qo'lida esa chiroq bor.¹

Magistratura (Soksa) – bakalavr dasturini tugatgandan so'ng universitet bitiruvchisi istagan mutaxassislik bo'yicha magistraturaga kirishi mumkin. Janubiy Koreada magistraturaga kirish uchun mutaxassislik shifrlarining mos kelishi talab qilinmaydi. Magistratura dasturi tanlangan mutaxassislikni chuqurroq o'rganish bilan birga, nafaqat ta'lim dasturiga rioya qilish, balki mustaqil ravushda ta'lim olishni ham ko'zda tutadi. Magistraturada o'qish muddati 2 yil va undan ortiq. Odatda,

¹ [Rabbimova D., Umarov D. Buyuk Britaniya oliy ta'lim muassasalarining o'ziga xosligi nimada?/O'zbekistonda oliy ta'lim/2022/№ 2/63-64 betlar]

magistr darajasini olish uchun magistrantlar 24 kredit to'plashi, muayyan imtihonlarni topshirishi va tugallangan dissertatsiyani komissiyaga topshirib, himoya qilishlari kerak.

Birlashtirilgan magistratura va PhD dasturlari so'nggi ishlanma bo'lib, nominal muddati – 4 yilga teng. Bunda talaba magistraturaga va doktoranturaga birdan hujjat topshiradi va suhbat yoki imtihon orqali qabul qilinadi. Bu dasturni tanlagan magistr doktoranturaga kirish uchun yana alohida imtihon topshirishi talab qilinmaydi.

Janubiy Koreada bakalavriat, magistratura yoki doktoranturada o'qish muddatlari O'zbekistonda belgilangan muddatlar bilan deyarli bir xil, ammo ta'lim jarayonining mazmuni sezilarni darajada farq qiladi.¹

Tajribaga asoslangan kichik tadqiqotimiz shuni ko'rsatadiki, Buyuk Britaniya magistratura bosqichi tizimi ko'plab g'arb davlatlari, shuningdek, O'zbekiston ta'lim tizimidan ham ayrim jixatlari bilan farq qiladi.

Xususan, talabalarning mustaqil izlanishi, akademik mulkka qat'iy hurmat bilan munosabatda bo'lishi va tanlov fanlarni o'qishi universitet uchun asosiy va eng muhim masaladir. Magistrantlarga universitet tomonidan tayinlangan ilmiy rahbarlar, nafaqat ilmiy, balki ijtimoiy hayot masalalarida ham yaqindan yordam beradi. Bu talaba hamda ilmiy rahbar o'rtasidagi muloqotning samarali bo'lishiga, pirovardida, dangasalikka o'rin qolmasligiga olib keladi.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, bu mamlakatdagi ta'lim dasturlari universitetlararo

ba'zi farqlanishlarga ega, ya'ni har bir oliy ta'lim muassasasi ichki nizomlar asosida o'ziga xos ta'lim tizimini ham shakllantira biladi. Magistr bu - talaba emas, u ilmiy salohiyatga ega shaxsdir.

Ispaniyada magistratura bu bakalavriatning davomi emas. U ilmiy faoliyat olib borish uchun qo'yiladigan ilk qadam. Mamlakatda yaxshi ishga ega bo'lish uchun

¹ [Mashrabbekova A. Yaxshi ta'lim – muvaffaqiyat kaliti yoxud – Janubiy Korea oliy ta'limiga bir nazar/O'zbekistonda oliy ta'lim/2022/№3/37-38 betlar]

tegishli tavsiyanomalar hamda bakalavr diplomining o'zi kifoya. Magistr esa ilmiy xodimdir.

Magistr darajasiga erishish uchun 1 yoki 2 yil talab qilinadi hamda 60 tadan 120 tagacha kredit to'plash zarur bo'ladi. Bundan tashqari, magistrlik ilmiy ishini yozish va himoya qilish o'zgarmas talab bo'lib, magistrantning ilmiy salohiyati o'ta ahamiyatli hisoblanadi. Mazkur bosqichda ta'lim olish istagidagi talabalarning tadqiqot olib borishi, akademik faoliyat ko'rsatishi yoki o'z sohasida ishlashi talab etiladi.

Odatda, bakalavrni bitirgan talaba o'sha yilning o'zida magistratura bosqichiga hujjat topshirmaydi. U bir necha yillik faoliyatdan so'ng, o'zini ilmiy ishga bag'ishlamoqchi bo'lsa yoki biror yangi tadqiqot ustida izlanish olib borishni istasagina, magistrlikni tanlaydi.¹

Fransiya oliy ta'limi magistraturasining maqsadi biror yo'nalish bo'yicha chuqur ixtisoslashgan ta'lim berish va talabani ilmiy izlanish yoki kasbiy yo'nalishga tayyorlash bo'lib hisoblanadi. Fransiyada magistraturaning muddati 2 yil. Fransiya oliy ta'limida 3 ta sikl mavjud: bunda bakalavriat 1-sikl, magistratura 2-sikl, doktorantura 3-sikl. Fransiya universitetlarida talabalar nazariy bilimlarni oladilar va bir paytning o'zida korxonaning maoshli ishchisi ham hisoblanadi.

Korxonada talaba uchun javobgar bo'lgan amaliyot rahbaridan kasbning amaliy jixatlarini o'rganadi. Bunday kurslar asosan magistratura bosqichida qo'llaniladi va talabaning o'z yo'nalishi bo'yicha ish bilan ta'minlanishiga yordam beradi.²

XULOSALAR

1. O'rganilgan xorijiy mamlakatlarning oliy ta'limi magistraturalari turlicha bo'lib bizning oliy ta'lim magistraturasidan farqli jixatlari ko'p. Masalan, Buyuk Britaniyada magistraturada o'qish muddati 1-yil, bu muddatda magistrantlar "Ustoz-

¹ [Ortiqova M. Ispaniyada oliy ta'lim: kirish osonu bitirish qiyin universitetlar/O'zbekistonda oliy ta'lim /2022/№3/45-bet]

² [Abdullajonova G., Mo'jizalar mamlakati oliy ta'limining o'ziga xosliklari/O'zbekistonda oliy ta'lim/2022/№4/60-61 betlar]

shogird” tizimida yuqorida bayon etilgan 3 ta yo‘nalishda faoliyat olib boradilar. Frantsiyada magistratura 2- yil bo‘lib magistrantlar ham o‘qiydi ham amalda soha korxonasida ishlab oylik oladi va bu bilan bir vaqtning o‘zida bo‘lg‘usi ish o‘rni bilan ham ta‘minlanadi. Ispaniyada magistrlikka bakalavrdan so‘ng 1 necha yil o‘tgandan keyin aniq qaror qabul qilib hujjat topshiriladi, chunki magistratura ilmiy faoliyatning boshlanishi bo‘lib u 2 yil davom etadi. Janubiy Koreyada magistraturaga topshirish uchun mutaxassislik shifri to‘g‘ri kelishi talab etilmaydi, hohlaganiga tanlab hujjat topshirishi mumkin, o‘qish muddati 2 yil bo‘lib so‘nggi ishlanmaga ko‘ra birlashtirilgan magistratura va PhD doktorantura nominal muddati 4-yil joriy etilgan.

2. Tahliliy ma‘lumotlardan ko‘rinib turibdiki, xorijiy mamlakatlarda bakalavni bitirganlar chuqur o‘ylab qat‘iy qarorga kelib so‘ng aniq mutaxassislikka hujjat topshiradilar, chunki magistratura bitiruvchilari ilmiy-tadqiqot, ilmiy-pedagogik va kasbiy faoliyat olib borishlari mumkin.

3. O‘zbekiston Respublikasida oliy ta‘lim 2-daraja (bosqich) dan, ya‘ni: birinchi daraja (bosqich)–bakalavriat, ikkinchi daraja (bosqich) – magistraturadan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "O'zbekiston Xalqi va Oliy Majlisga Murojaatnomasi.-Toshkent.-2022 yil 22 dekabr.-
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 2-martdagi "Magistratura to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqidagi"gi 36-son Qarori.
4. Abdullajonova G. Mo'jizalar mamlakati oliy ta'limining o'ziga xosliklari /O'zbekistonda oliy ta'lim/2022/№4/60-61 betlar.
5. Mashrabbekova A. Yaxshi ta'lim – muvaffaqiyat kaliti yoxud – Janubiy Korea oliy ta'limiga bir nazar/O'zbekistonda oliy ta'lim/ /2022/№3/37-bet.
6. Ortiqova M. Ispaniyada oliy ta'lim: kirish osonu bitirish qiyin universitetlar/O'zbekistonda oliy ta'lim/2022/№3/45-bet.
7. Rabbimova D., Umarov D. Buyuk Britaniya oliy ta'lim muassasalarining o'ziga xosligi nimada?/O'zbekistonda oliy ta'lim/2022/№ 2/63-64 betlar.

Internet manbalari:

1. www.edu.uz
2. <http://www.lex.uz>
3. www.magistr.edu.uz